



KIMYOGAR MAHALLASIDA KRIMINOGEN VAZIYATNI BARQARORLASHTIRISH VA HUQUQBUZARLIKLARNING BARVAQT OLDINI OLIISH

Ruzibayev Rufat Abdulfozilovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
magistratura tinglovchisi, podpolkovnik
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20555592>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

KEYWORDS

kriminogen vaziyat, mahalla, huquqbuzarliklar profilaktikasi, xavfsiz muhit, ijtimoiy profilaktika, ichki ishlar organlari, profilaktika inspektori, yoshlar, oilaviy muhit, jamoatchilik nazorati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Chirchiq shahri hududida joylashgan Kimyogar mahallasidagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish, huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni barvaqt oldini olish orqali xavfsiz muhitni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, mahalla instituti, ichki ishlar organlari, probatsiya xizmati, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligi asosida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, huquqbuzarliklarning oqibatlarini bilan kurashishdan ko'ra, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik yondashuv davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada mahalla institutining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zero, mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida nafaqat ijtimoiy masalalarni hal etish, balki huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish va xavfsiz muhitni shakllantirishda ham muhim vazifalarni bajaradi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini mahalla darajasida tashkil etish orqali muayyan hududda jinoyatchilikning haqiqiy holatini o'rganish, kriminogen vaziyatni baholash hamda aniq manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z navbatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi¹.

Kriminologiya fanida kriminogen vaziyat tushunchasi jinoyatchilikning holati, dinamikasi va tuzilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, psixologik va tashkiliy omillar

¹ Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини такомиллаштиришнинг илмий-назарий таҳлили //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 27-31.

yig'indisi sifatida talqin qilinadi². Mazkur omillarni har bir mahalla kesimida tahlil qilish huquqbuzarliklarning haqiqiy sabablarini aniqlash imkonini beradi.

V.N.Kudryavsev o'z tadqiqotlarida jinoyatchilikni ijtimoiy muhit mahsuli sifatida baholab, uning kelib chiqishida iqtisodiy, madaniy va tarbiyaviy omillar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi³. Biznincha, jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy yo'li jazoni kuchaytirish emas, balki jinoyatlarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish hisoblanadi.

G.A.Avanesov esa jinoyatchilikning oldini olish nazariyasini rivojlantirib, profilaktika choralari jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali vositasi ekanligini va huquqbuzarliklarning oldini olishga sarflangan har qanday resurs jinoyat sodir etilgandan keyin uning oqibatlarini bartaraf etish uchun sarflanadigan mablag'dan bir necha baravar samarali hisoblanadi⁴.

Bundan tashqari, M.X.Rustambayevning fikricha, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilgandagina yuqori samara beradi⁵ deb o'z qarashlarini bayon etsa Z.S.Zaripov esa huquqbuzarliklar profilaktikasining mahallabay tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etar ekan, har bir mahallaning kriminogen xususiyatlaridan kelib chiqqan holda profilaktika ishlarini tashkil etish zarurligini qayd etadi⁶. Nazarimizda, profilaktika inspektori, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi va jamoatchilik vakillari hamkorligi huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning muhim sharti⁷ hisoblanadi. Mazkur ilmiy qarashlardan kelib chiqqan holda Toshkent viloyati Chirchiq shahri tarkibidagi Kimyogar mahallasidagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish hamda uni barqarorlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Toshkent viloyatidagi mahallalarning 2024-yil yakunlari bo'yicha kriminogen holati tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi 1025 ta mahallaning 184 tasida yoki 18 foizida jinoyat sodir etilmagan. Shu bilan birga, 198 ta mahalla yoki 19,3 foizi aholi soniga nisbatan jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan qizil toifaga kiritilgan. Qolgan 643 ta mahalla yoki 62,7 foizi sariq toifaga mansub bo'lgan. Umumiy hisobda esa 841 ta mahallada, ya'ni mahallalarning 82 foizida turli xil jinoyatlar qayd etilgan⁸.

² Юлдашев Д.Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.

³ Кудрявцев В.Н. **Причины правонарушений.** – М.: Юридическая литература, 1976. – 286 с.

⁴ Аванесов Г.А. **Криминология и социальная профилактика.** – М.: Академия МВД СССР, 1980. – 526 с.

⁵ Рустамбаев М.Х. **Жиноят ҳуқуқи ва криминология муаммолари.** – Т.: Адолат, 2018. – Б. 187–205.

⁶ Зарипов З.С. **Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: назария ва амалиёт.** – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – 312 б

⁷ Нигматов Р.О., Шодиев А.А. **Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар мажбуриятларини оширишнинг илмий-назарий таҳлили** //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Т. 4. – №. 9. – С. 73-77.

⁸ Тошкент вилояти ИИББнинг 2024 йил якунлари бўйича маҳаллалар кесимидаги криминоген вазият таҳлилий маълумотлари. – Тошкент, 2025. – 12 б.

Mazkur raqamlar viloyatda jinoyatchilikning hududlar kesimida noteng taqsimlanganligini ko'rsatadi. Bir qator mahallalarda jinoyatchilik darajasi nisbatan past bo'lsa, ayrim hududlarda kriminogen vaziyat murakkabligicha saqlanib qolmoqda. Bu holat profilaktika choralarini umumiy emas, balki har bir hududning xususiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Chirchiq shahri kriminogen vaziyat jihatidan e'tibor talab etadigan hududlardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, shaharda mavjud 44 ta mahallaning faqat bittasida jinoyat sodir etilmagan. 10 ta mahalla qizil toifaga, 33 ta mahalla sariq toifaga kiritilgan. Eng muhim ko'rsatkich shundaki, shahar mahallalarining 97,7 foizida jinoyat sodir etilgan.

Bu holat shahar aholisi sonining yuqoriligi, urbanizatsiya jarayonlari, mehnat migratsiyasi, aholi harakatchanligi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkabligi bilan izohlanishi mumkin. Shu sababli Chirchiq shahri mahallalarida huquqbuzarliklar profilaktikasini kuchaytirish va mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday mahallalardan biri Kimyogar mahallasi hisoblanadi. Ushbu mahallada 2024-yil yakuniga ko'ra 2221 nafar aholi istiqomat qilgan bo'lib, yil davomida 10 ta jinoyat sodir etilgan. Natijada har 1000 nafar aholiga 18,01 ta jinoyat to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkich mahalladagi kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish va profilaktika ishlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kimyogar mahallasida qayd etilgan jinoyatlar tarkibi tahlil qilinganda, ularning aksariyati aholining kundalik turmushi va ijtimoiy munosabatlari bilan bevosita bog'liq ekanligi kuzatiladi. Xususan, mahallada 1 ta og'ir va o'ta og'ir jinoyat, 1 ta bezorilik, 2 ta o'g'rilik hamda boshqa turdagi jinoyatlar qayd etilgan. Bir qarashda mazkur raqamlar katta ko'rinmasligi mumkin, ammo kriminologiya nuqtayi nazaridan har bir sodir etilgan jinoyat muayyan ijtimoiy muammo mavjudligidan dalolat beradi. Shu sababli jinoyatchilikni faqat statistik ko'rsatkich sifatida emas, balki uni keltirib chiqargan sabab va shart-sharoitlar nuqtayi nazaridan baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahallada aniqlangan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq 4 ta holat va qo'shmachilik bilan bog'liq 1 ta holat ham alohida e'tibor talab qiladi. Chunki bu kabi huquqbuzarliklar ko'pincha boshqa turdagi jinoyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi. Amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq huquqbuzarliklar o'g'rilik, bezorilik, talonchilik va boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlarning sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin⁹. Shu nuqtayi nazardan Kimyogar mahallasida giyohvandlikka qarshi profilaktika ishlarini kuchaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kriminologik tadqiqotlarda jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari obyektiv va subyektiv omillarga ajratiladi. Obyektiv omillarga iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va aholi turmush darajasining pasayishi kirs¹⁰, subyektiv omillarga shaxsning

⁹ Нигматов, Р.О., & Шодиев, А.А. (2025). Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: америка қўшма штатлари мисолида илмий-назарий таҳлил. *Central Asian Journal of Academic Research*, 3(9), 116-121.

¹⁰ Хайитович Y.D. transport huquqi mustaqil huquq tarmoqi sifatida: nazariy asoslar, qiyosiy tahlil va o'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalalari //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – T. 6. – №. 2. – С. 67-71.

huquqiy ongi, axloqiy qarashlari, tarbiyasi va hayotiy qadriyatlarini kiradi. Kimyogar mahallasidagi holatni tahlil qilish mazkur omillarning aksariyati o'zaro bog'liq holda namoyon bo'layotganini ko'rsatadi.

Xususan, aholi bandligini ta'minlash masalasi kriminogen vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ishsizlik darajasi bilan jinoyatchilik darajasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi. Daromad manbaiga ega bo'lmagan shaxslarda ijtimoiy tushkunlik, huquqiy nigilizm va jamiyat qoidalariga nisbatan befarqlik shakllanishi mumkin. Bu esa ayrim holatlarda huquqbuzarlik sodir etish xavfini oshiradi. Shu sababli mahallada ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish dasturlarini kengaytirish profilaktikaning muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlar bilan ishlash ham kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Kriminologiyada yoshlar jinoyatchiligiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki yoshlik davrida insonning dunyoqarashi, huquqiy madaniyati va hayotiy maqsadlari shakllanadi. Agar mazkur jarayonda ijtimoiy nazorat yetarli bo'lmasa, turli salbiy ta'sirlar shaxs xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan Kimyogar mahallasida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sport, madaniyat, kitobxonlik va kasb-hunar to'garaklariga jalb qilish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Mahalladagi kriminogen vaziyatga ta'sir etuvchi muhim omillardan yana biri oila instituti bilan bog'liq. BMT va xalqaro kriminologik tadqiqotlarda ham oilaviy muhit shaxsning huquqqa munosabatini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida baholanadi. Notinch oilalar, oilaviy nizolar, farzand tarbiyasidagi kamchiliklar va ijtimoiy nazoratning susayishi huquqbuzarliklarga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shu bois mahallada oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, muammoli oilalar bilan individual ishlash va ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi milliy qonunchilik ham profilaktika subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Amalda profilaktika inspektori, mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ta'lim muassasalari vakillari va boshqa subyektlar o'rtasidagi hamkorlik qanchalik samarali bo'lsa, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Kimyogar mahallasida ham mazkur hamkorlikni yanada mustahkamlash orqali kriminogen vaziyatni yaxshilash mumkin.

M.X.Rustambayev ta'kidlaganidek, profilaktika faoliyatining asosiy maqsadi huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin ta'sir choralari qo'llash emas, balki uning sabab va shart-sharoitlarini oldindan bartaraf etishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan mahalladagi har bir xavf guruhi vakili bo'yicha alohida profilaktik ish rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, muqaddam sudlangan shaxslar, probatsiya nazoratidagi fuqarolar va ijtimoiy xavfli ahvoldagi shaxslar bilan manzilli ishlash tizimi takomillashtirilishi lozim¹¹.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda¹². Bugungi kunda "Xavfsiz shahar" va "Xavfsiz mahalla" konsepsiyalari doirasida videokuzatuv kameralari, intellektual monitoring tizimlari va elektron

¹¹ Рустамбаев М.Х. **Криминология: Дарслик.** – Т.: TDYU нашриёти, 2021. – 496 б.

¹² Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жазони ижро этиш муассасаларида сунъий интеллект: маҳкумларни ахлоқан тузатишнинг замонавий усуллари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 9. – С. 75-78.

ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Kimyogar mahallasida ham jamoat joylari, ta'lim muassasalari atrofi va aholi gavjum hududlarda videokuzatuv vositalarini ko'paytirish huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mahallada huquqiy targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, fuqarolarning qonunlarga itoatkorligi ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bu borada aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari, profilaktik aksiyalar va targ'ibot tadbirlarini muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan tahlillar natijasida Toshkent viloyati, xususan Chirchiq shahri mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi aniqlandi. Jumladan, Chirchiq shahridagi 44 ta mahallaning 43 tasida jinoyat sodir etilganligi hamda Kimyogar mahallasida 2024-yil davomida 10 ta jinoyat qayd etilganligi mazkur hududda huquqbuzarliklar profilaktikasini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, har 1000 nafar aholiga 18,01 ta jinoyat to'g'ri kelishi, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq 4 ta holat va qo'shmachilik bilan bog'liq 1 ta holat aniqlanganligi profilaktika subyektlari oldiga qo'shimcha vazifalarni yuklaydi.

Tadqiqot davomida huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida aholi bandligi bilan bog'liq muammolar, yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishdagi kamchiliklar, ayrim oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitning yetarli darajada emasligi hamda giyohvandlik bilan bog'liq xavf omillari mavjudligi aniqlandi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, Kimyogar mahallasida huquqbuzarliklar profilaktikasini "xavf guruhi" asosida tashkil etish lozim. Buning uchun muqaddam sudlangan, probatsiya nazoratida turgan, ma'muriy nazorat ostidagi hamda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida elektron profilaktik kartoteka yuritish va ular bilan individual ishlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, mahallada aniqlangan giyohvandlik bilan bog'liq holatlardan kelib chiqib, profilaktika inspektori, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi va jamoat tashkilotlari hamkorligida "Giyohvandlikka qarshi xavfsiz mahalla" profilaktik dasturini joriy etish maqsadga muvofiq. Chunki giyohvandlik ko'plab boshqa huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, har 1000 aholiga 18,01 ta jinoyat to'g'ri kelayotganligi inobatga olinib, mahallada kriminogen nuqtalarni aniqlash va ular bo'yicha alohida "yo'l xaritalari" ishlab chiqish lozim. Bunda jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan hududlarda profilaktik reydlar, videokuzatuv vositalari va jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi zarur.

To'rtinchidan, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida mahallada "Yoshlar xavfsizligi indeksi"ni joriy etish taklif etiladi. Mazkur tizim orqali ta'limdan uzilgan, ishsiz, ijtimoiy nazoratdan chetda qolgan yoshlar aniqlanib, ular bilan manzilli ish tashkil etilishi mumkin.

Beshinchidan, mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida oilaviy profilaktika institutini kuchaytirish zarur. Buning uchun notinch va muammoli oilalarning elektron reyestrini shakllantirish, ular bilan psixolog, xotin-qizlar faoli va mahalla faollari ishtirokida tizimli ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, aholi bandligini ta'minlash orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmini kuchaytirish lozim. Xususan, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini o'zi band qilish loyihalarini mahalla kesimida manzilli amalga oshirish zarur.

Yettinchidan, profilaktika inspektori faoliyatini raqamlashtirish va tahliliy ishlarni avtomatlashtirish maqsadida mahalla kriminogen pasportini raqamli shaklda yuritish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu orqali huquqbuzarliklar dinamikasini doimiy monitoring qilish imkoniyati yaratiladi.

Sakkizinchidan, mahallada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida nuroniylar, faol fuqarolar, ta'lim muassasalari vakillari hamda yoshlar yetakchilaridan iborat jamoatchilik kengashini tashkil etish lozim. Bu profilaktika ishlarining ijtimoiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

To'qqizinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirish maqsadida aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

O'ninchidan, Kimyogar mahallasida amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlari samaradorligini baholash uchun har chorak yakuni bo'yicha kriminogen vaziyat indeksi shakllantirilib, uning natijalari asosida keyingi profilaktik choralar rejalashtirilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини такомиллаштиришнинг илмий-назарий таҳлили //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 27-31.
2. Юлдашев Д.Х. Ўзбекистон Республикасининг маъмурий қонунчилик нормаларини такомиллаштиришга доир айрим мулоҳазалар //Евразийский журнал
3. права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 9-11.
4. Кудрявцев В.Н. Причины правонарушений. – М.: Юридическая литература, 1976. – 286 с.
5. Аванесов Г.А. Криминология и социальная профилактика. – М.: Академия МВД СССР, 1980. – 526 с.
6. Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи ва криминология муаммолари. – Т.: Адолат, 2018. – Б. 187-205.
7. Зарипов З.С. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: назария ва амалиёт. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – 312 б
8. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар мажбуриятларини оширишнинг илмий-назарий таҳлили //Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Т. 4. – №. 9. – С. 73-77.
9. Тошкент вилояти ИИББнинг 2024 йил якунлари бўйича маҳаллалар кесимидаги криминоген вазият таҳлилий маълумотлари. – Тошкент, 2025. – 12 б.
10. Нигматов, Р.О., & Шодиев, А.А. (2025). Жиноят-ижроия қонунчилигида маҳкумлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг ўзига хос жиҳатлари: америка қўшма штатлари мисолида илмий-назарий таҳлил. Central Asian Journal of Academic Research, 3(9), 116-121.

11. Xayitovich Y.D. transport huquqi mustaqil huquq tarmoqi sifatida: nazariy asoslar, qiyosiy tahlil va o'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalalari //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2026. – T. 6. – №. 2. – С. 67-71.
12. Рустамбаев М.Х. Криминология: Дарслик. – Т.: TDYU нашриёти, 2021. – 496 б.
13. Нигматов Р.О., Шодиев А.А. Жазони ижро этиш муассасаларида сунъий интеллект: маҳкумларни ахлоқан тузатишнинг замонавий усуллари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 9. – С. 75-78

